



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 422 sahifa,
16-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinovna	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifadni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	
O'zini tarbiyalash (self-development) g'oyasining Ibn Sino ta'limotidagi o'rni	229
Usmanova E'zoza Zokirjonovna	
Оценка динамики физиологических показателей волейболистов 12–16 лет в предсоревновательный и соревновательный периоды.....	234
Умматалиева Шерзода Шерали угли	
Individual sport turlarida sportchilarning natijadorlik kompetensiyasini motivatsion omillar asosida shakllantirish.....	239
Baratov Nasriddin Karshibayevich	
O'smirlarda internetdan ortiqcha foydalanishning psixologik oqibatlarini	243
Fayziyeva Nodira Sobirovna	
Transakt analiz: shaxslararo muloqotni tahlil qilishning nazariy va amaliy asoslari	247
Nilufar Sayfidinovna Sangirova	
Inklyuziv ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)	252
Abdug'aniyev Abdurauf Abdumannonovich	
O'zbek milliy kurashining tarixiy rivojlanish bosqichlari va uning yoshlar tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati.....	257
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Almardanov Xasan Asqarovich	
Belbog'li kurashning shakllanishi va rivojlanish tarixi: jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni va metodik imkoniyatlari	261
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqizilov Muxammadbek Sherali o'gli	



Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	265
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqobilov Jamshid G'ulomovich</i>	
Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	270
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Nurullayev Fazliddin Murodulla o'gli</i>	
Raqamli muhitda shaxs xulq-atvori dinamikasi (bolalik va o'smirlilik misolida)	275
<i>Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li</i>	
O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishning pedagogik va psixologik asoslari	278
<i>Suvanova Baxtigul Baxridinovna</i>	
Xalqaro tajriba asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	283
<i>Azimov I. T., Mirzayeva N. I.</i>	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda didaktik vositalardan foydalanish	288
<i>Ziyaboyeva Sevara Saydullayevna</i>	
Yuqori malakali o'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasi	292
<i>Nazarov Nuriddin Baxranovich</i>	
Maktab direktorining partisipativ boshqaruv faoliyatida qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirokchilarning roli	297
<i>Jabborova Yulduzxon Hasan qizi</i>	
Tibbiyotda nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish usullari	301
<i>Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna</i>	
Ichki kasalliklarni tashxislashda klinik fikrlashning o'rni	304
<i>Tilavova Muqaddas, Hasanova Munisa, Mamatqulova Fayzo, Hakimova Xonbuvi Hakimovna</i>	
Транснациональные компании и проблема суверенитета национального государства	307
<i>Ф. Равшанов, Л. Сохибова</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	311
<i>Muhammadiyeva Manzura Maratovna, Musulmonova Sabrina Akmal qizi</i>	
Texnologik ta'limda xorijiy tajriba	316
<i>Lochinbek Abdirasulov</i>	
Talabalarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	319
<i>Saffarova Mohidil Axmadovna, Mustafayeva Feruza Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi asosiy resurslari: "ona tili" darsligi, mashq daftari, o'qituvchi kitobi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida	324
<i>Soatova Hilola Shuhrat qizi</i>	
Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida	328
<i>R. D. Mustayev, H. F. Abduvositov</i>	
Русскоязычная литература Узбекистана современного периода: проблематика, поэтика и художественный анализ	332
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri	335
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish jarayonida targeting yondashuvining pedagogik nazariy asoslari	339
<i>D. G. Umnov</i>	
Ona tili darslarini ikkinchi til tamoyillari asosida tashkil etish masalalari	344
<i>Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni pedagogik jihatlardan tashkil etishning nazariy va amaliy aspektlari	347
<i>Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars jarayonini takomillashtirish metodikasi	351
<i>Muhammadjonova Durdonaxon Bahromjon qizi</i>	
Tarix darslarini modellashtirishda pedagogik metodlar tasnifi va ularning samaradorligi	354
<i>Ikrom Qodirov</i>	

Hadassah gospital maktabi modelining o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik samaradorligi va uni O'zbekiston gospital maktablariga tatbiq etishning ahamiyati	357
<i>Abdullayev Aziz Habibullayevich, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li, Alimova Dono Abbosxanovna</i>	
Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....	361
<i>Amirxo'jayev Shukurjon Qurbonovich, Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</i>	
Neyropedagogik yondashuv asosida o'quvchilarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari	364
<i>Babakulova Dilnoza Ramazonovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda nutqiy nuqsonlarning oldini olish va o'quvchilarning talaffuz madaniyatini shakllantirish metodikasi.....	367
<i>Baxtiyorova Nastarin Baxriddinovna, Daminova Dilbar Melimurodovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari.....	370
<i>G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Raxmatova Shaxlo Mansurovna</i>	
Ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi	373
<i>Jo'raboyeva Turg'unoy Ikromjon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvokognitiv kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimi.....	377
<i>Kozimova Sadoqat</i>	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish orqali ekologik savodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari	380
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Oilaviy munosabatlarda manipulyativ muloqot indikatsiyasi: psixologik tahlil va eksperimental natijalar.....	383
<i>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni.....	386
<i>Nurulloev Firuz No'monjonovich</i>	
Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarixiy-pedagogik asoslari (ma'rifatparvar mutafakkirlar merosi misolida).....	390
<i>Sabirov Kaxramon Bektursun o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi 5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish qobiliyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.....	393
<i>Tillayeva Vasila O'ktam qizi</i>	
Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmuni	398
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarini kinematik va kinetik modellashtirish	402
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Oliy ta'limda ishga doir muloqot asoslari fanini o'qitish orqali talabalarining og'zaki fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirish	406
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Роль онлайн-платформ и образовательных сервисов в формировании ответственности студентов.....	409
<i>Гуламов Жасур Баходирович</i>	
Изучение изменений полярного переключения негативных и позитивных эмоций средового воздействия в процессе развития/реабилитации механизмов эмпатии	413
<i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>	



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL ISHLARNI PEDAGOGIK JIHATLARDAN TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY ASPEKTLARI

Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun tizimli ishlarni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ularning ijodiy va ijtimoiy faolligini rivojlantiradi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa oladigan, istiqbolli vazifalarni belgilash va ularni samarali hal etish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlar avlodini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan mazkur maqolada talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda qo'llaniladigan zamonaviy shakllar, mavjud pedagogik muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, kredit-modul tizimi, mustaqil fikrlash, tashkiliy ko'nikmalar, kreativ fikrlash, ilmiy tadqiqot ko'nikmalari, axborot manbalarini tahlil qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Abstract: The effective organization of independent learning in higher education institutions requires a systematic approach. Developing students' ability to work independently enhances their creative and social activity and contributes to the formation of a new generation of specialists capable of independently navigating socio-political life, setting goals, and effectively solving prospective tasks. This article analyzes modern forms of organizing students' independent work, identifies relevant pedagogical challenges, and outlines constructive ways to address them.

Key words: independent learning, credit-modular system, independent thinking, organizational skills, creative thinking, research skills, analysis of information sources, innovative pedagogical technologies.

Аннотация: Эффективная организация процесса самостоятельного обучения в высших учебных заведениях требует системного подхода. Формирование у студентов навыков самостоятельной работы способствует развитию их творческой и социальной активности, а также подготовке нового поколения специалистов, способных самостоятельно ориентироваться в общественно-политической жизни, ставить цели и эффективно решать перспективные задачи. В данной статье анализируются современные формы организации самостоятельной работы студентов, актуальные педагогические проблемы и пути их конструктивного решения.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, кредитно-модульная система, самостоятельное мышление, организационные навыки, креативное мышление, навыки научного исследования, анализ информационных источников, инновационные педагогические технологии.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'limni modernizatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro ta'lim maydoniga integratsiyalashuvini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur hujjatning "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari" nomli uchinchi bobida oliy ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida mustaqil ta'limni kuchaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" deb nomlangan badda mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil o'qish va ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, tizimli tahlil qilish hamda tadbirkorlik kompetensiyalarini tarkib toptirish zarurligi ta'kidlangan.

Shuningdek, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xalqaro ta'lim standartlariga mos o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng tatbiq etish vazifalari belgilangan. Ushbu ustuvor yo'nalishlar ta'lim oluvchilarning

mustaqil ta'lim olish jarayonini tizimli tashkil etish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik qobiliyati va mantiqiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish oliy ta'lim sifatini oshirishning muhim pedagogik sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish hamda kreativ va tanqidiy tafakkurni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Zamonaviy oliy ta'lim sharoitida bilimlarni tayyor shaklda berish emas, balki talabani mustaqil izlanishi, amaliy faoliyat orqali bilimni egallashi va uni real muammolarni hal etishda qo'llay olishi ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta tashkil etish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, talabalarning individual qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Mazkur jarayon mustaqil ta'limni samarali tashkil etish orqali talabani shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oliy ta'limning asosiy vazifasi – o'z-o'zini rivojlantira oladigan, o'z ustida ishlash va o'zini tarbiyalashga qodir, innovatsion faoliyatga tayyor bo'lgan ijodkor mutaxassis shaxsini shakllantirishdan iborat. Zamonaviy jamiyat sharoitida tayyor bilimlarni uzatishga asoslangan an'anaviy yondashuv ushbu vazifani to'liq ta'minlay olmaydi, chunki bilimni passiv qabul qilish talabani mustaqil fikrlashi va muammoni hal etish kompetensiyalarini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Shu bois talabani ta'lim jarayonidagi mavqeini tubdan o'zgartirish zarur: u passiv bilim iste'molchisi emas, balki muammoni mustaqil qo'ya oladigan, uni tahlil qiladigan, yechim variantlarini ishlab chiqadigan, optimal natijani tanlaydigan hamda o'z xulosalarini asoslay oladigan faol bilim yaratuvchiga aylanishi lozim. Hozirgi oliy ta'lim islohotlari aynan o'qitishga yo'naltirilgan paradigmadan ta'lim oluvchining shaxsiy faolligiga asoslangan ta'lim paradigmasiga o'tish bilan xarakterlanadi. Bu esa talaba mustaqil ishini (TMI) o'quv jarayonining oddiy tarkibiy qismi emas, balki uning metodologik va amaliy asosiga aylantirishni taqozo etadi. Mustaqil ta'lim jarayoni talabani intellektual salohiyatini, tadqiqotchilik qobiliyatini va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarning mustaqil ishlarini rejalashtirish va tashkil etish masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, L.G. Vyatkin, M.G. Garunov, B.P. Esipov, V.A. Kozakov, I.Ya. Lerner, M.I. Maxmutov, N.A. Polovnikova, P.I. Pidkasiy va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda mustaqil ta'limning umumdidaktik, psixologik va tashkiliy asoslari atroficha yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda talabalarning bilish faoliyati, uning mantiqiy va uslubiy jihatlari, mustaqil ishni tashkil etish mexanizmlari an'anaviy didaktik yondashuv doirasida tahlil etilgan.

Biroq zamonaviy ta'lim talablari nuqtai nazaridan mustaqil ta'limni faqat tashkiliy yoki metodik jihatdan ko'rib chiqish yetarli emas. Talabalarning individual qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklarini inobatga olgan holda, mustaqil bilish faoliyatini motivatsion, protsessual va texnologik jihatdan yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, mustaqil ta'lim jarayonining ichki rag'batlantiruvchi omillari, uning bosqichma-bosqich amalga oshirilish mexanizmi hamda samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash alohida ilmiy e'tiborni talab etadi.

"Mustaqil ish" tushunchasi ko'p qirrali va murakkab pedagogik kategoriya hisoblanadi. Talabalarning mustaqil faoliyati muammolari yuzasidan salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, mazkur didaktik jarayonning mohiyati va mazmuniga nisbatan yagona, to'laqonli hamda universal yondashuv shakllanmagan. Turli ilmiy manbalarda ushbu tushuncha turlicha talqin qilinadi va u bir nechta mazmuniy jihatlarni o'zida mujassam etadi.

- *Birinchidan*, mustaqil ish pedagogning bevosita ishtirokisiz, talaba tomonidan topshiriqni mustaqil ravishda bajarishni nazarda tutadi. Bunda o'qituvchi yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi sifatida maydonga chiqadi, asosiy faoliyat esa talaba zimmasiga yuklanadi.
- *Ikkinchidan*, mustaqil ish talabani fikrlash operatsiyalarini faollashtirish, o'quv materialini mustaqil ravishda anglash, tahlil qilish va umimlashtirish jarayoniga asoslanadi. Bu esa o'z-o'zini boshqarish, o'z faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish ko'nikmalarining shakllanishini talab etadi.
- *Uchinchidan*, mustaqil ish jarayonida topshiriqni bajarish usullari qat'iy reglamentlashtirilmaydi; aksincha, talaba muammoni hal etish yo'llarini erkin tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur jihat mustaqil ta'limning ijodiy va tadqiqotchilik xarakterini kuchaytiradi.

Demak, mustaqil ish nafaqat tashkiliy shakl, balki talabani bilish faoliyatini faollashtiruvchi, uning intellektual va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi murakkab pedagogik jarayon sifatida namoyon bo'ladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar bir nechta ilmiy usullar asosida to'plandi. Avvalo, pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish orqali mustaqil ta'lim jarayonining nazariy asoslari o'rganildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida talabalarining mustaqil ish faoliyatini aniqlash maqsadida kuzatish va so'rovnoma usullaridan foydalanildi. So'rovnoma orqali talabalar va o'qituvchilarning mustaqil ta'limga bo'lgan munosabati, mavjud muammolar hamda amaliy tajribalari haqida ma'lumotlar yig'ildi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimlashtirish asosida tahlil qilindi. Natijalarni ishonchligini ta'minlash maqsadida turli manbalardan olingan ma'lumotlar o'zaro solishtirildi va mantiqiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqil ish – shaxsning mustaqillik kabi muhim sifatini shakllantirishning samarali vositasi hamda talabaniq bilish faoliyatini tashkil etishning muhim shakli hisoblanadi. U talabaniq faolligini, fikr mustaqilligini, ijodkorligini, qat'iyatini hamda topshiriqlarni bajarishda tashabbuskorligini namoyon etishni talab qiladi. Mustaqil ish jarayonida talaba tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki bilimni izlovchi, tahlil qiluvchi va uni amaliyotga tatbiq etuvchi subyekt sifatida maydonga chiqadi. Aynan shu jihat mustaqil ta'limni shaxsning intellektual va kasbiy rivojlanishida muhim omilga aylantiradi.

Talabalarining mustaqil ish jarayonida ularning mustaqillik darajasi turli bosqichlarda turlicha namoyon bo'ladi. Dastlabki bosqichlarda bu jarayon ko'proq namunaga asoslangan takrorlash va taqlid qilish ko'rinishida ifodalansa, keyingi bosqichlarda tahlil qilish, umumlashtirish va muammoni mustaqil hal etish darajasiga ko'tariladi. Eng yuqori bosqichda esa mustaqillik ijodkorlik va tadqiqotchilik faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Topshiriqlarning murakkablik darajasi ortib borishi bilan talabaniq mustaqil faoliyati ham izchil rivojlanadi, mazmungan boyiydi va intellektual jihatdan murakkablashadi. Shu bois mustaqil ishni bosqichma-bosqich tashkil etish, oddiy reproduktiv faoliyatdan ijodiy faoliyatga o'tishni ta'minlash muhim pedagogik shart hisoblanadi.

Talabaniq turli fanlar bo'yicha mustaqil ishining samaradorligi, avvalo, uning shaxsiy fazilatlariga bog'liqdir. Jumladan, intizomlilik, ichki motivatsiya, mas'uliyat hissi, diqqat va xotira kabi psixik jarayonlar hamda irodaviy sifatlar mustaqil faoliyatning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Biroq samarali mustaqil ish faqat tabiiy yoki mavjud individual xususiyatlarga tayanib qolmaydi. Uning natijadorligi ko'p jihatdan mustaqil ta'lim ko'nikmalarining maqsadli shakllantirilishi va izchil rivojlantirilishiga bog'liqdir. Demak, mustaqil ish samaradorligini ta'minlash uchun talabalarda o'z-o'zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish, axborotni saralash va tahlil qilish kabi kompetensiyalarni tizimli ravishda tarkib toptirish zarur.

Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi – turli axborot manbalaridan yangi bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish jarayonida ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Mazkur jarayon talabaniq bilish faolligini kuchaytirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda axborotni izlash, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mustaqil ish mazmuniga darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan ishlash, fanlar bo'yicha klassik va zamonaviy mualliflarning ilmiy asarlarini o'rganish, monografiyalar, ilmiy maqolalar to'plamlari, ilmiy ma'ruzalar hamda ixtisoslashtirilgan jurnallardagi materiallarni tahlil qilish kiradi. Shuningdek, badiiy adabiyotlar bilan ishlash ham talabaniq tafakkur doirasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda mustaqil ish jarayonida elektron resurslardan foydalanish salmoqli o'rin egallamoqda. Internet tarmog'i, elektron kutubxonalar, kompyuter dasturlari va turli elektron axborot tashuvchilar talabaniq mustaqil izlanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Talabalarining mustaqil ishlari natijasi sifatida insholar, izohlar, referatlar, tezislar, tahliliy ma'lumotlar va boshqa yozma ishlar tayyorlanadi. Bunday faoliyat talabaniq ilmiy nutq madaniyatini rivojlantirishga, fikrini mantiqan asoslash va tizimli bayon etish ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishda darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanish jarayoni tizimli bo'lishi zarur. Ushbu jarayon odatda uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda talaba darslik yoki o'quv qo'llanma bilan tanishadi, mualliflar, ularning izohlari va manbalari e'tibor bilan o'rganiladi, mundarija, diagramma va chizmalar ko'zdan kechiriladi hamda o'zi qiziqqan bo'limlarga murojaat qiladi. Bu bosqich talabaniq materialni umumiy tushunishini ta'minlaydi va o'quv faoliyatiga tayyorgarlik vazifasini bajaradi.

Ikkinchi bosqichda talaba darslikni batafsil o'qib chiqadi va alohida varaqlarda majburiy yozuvlar bilan qaydlar qiladi. Ushbu eslatmalar o'qilgan materialni asosiy va ikkilamchi, muhim va ahamiyatsiz, qiziqarli va qiziq bo'lmagan elementlarga ajratishga, shuningdek, hodisalarning tavsifi va boshqa mezonlar bo'yicha farqlashga imkon beradi. Eslatmalarda manba sahifasi va kitob nomining ko'rsatilishi shart bo'lib, bu keyinchalik kurs ishlari, ilmiy maqolalar va tezislar yozishda plagiatdan saqlanishni ta'minlaydi.

Uchinchi bosqichda kitobning qisqacha mazmuni shakllantiriladi. Eslatmalar asosida material so'zma-so'z yoki mazmungan bayon qilinadi, har doim manbaniq sahifa raqami ko'rsatiladi. Bu talabaniq o'z fikrini shak-



llantirish, bilimni tizimli qayta ishlash va keyinchalik ilmiy ishlar hamda kurs ishlarini yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, talabani faol mustaqil ishi faqat jiddiy va barqaror motivatsiya mavjud bo'lganda ijobiy natija beradi. Eng kuchli rag'batlantiruvchi omil – bu keyingi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlik bo'lib, talabani o'z-o'zini rivojlantirish va mustaqil ishlashga bo'lgan intilishlarini kuchaytiradi. Talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradigan ichki omillar bir qator pedagogik va psixologik jihatlarni o'z ichiga oladi. Avvalo, bajarilgan ishning foydaliligi muhim hisoblanadi. Agar talaba o'z ishinin natijalari ma'ruza kursida, laboratoriya mashg'ulotlarida, uslubiy qo'llanmalarda yoki nashrlar tayyorlashda qo'llanilishini bilsa, uning topshiriqni bajarishga bo'lgan munosabati sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgaradi va bajarilayotgan ishlarning sifati oshadi.

Talabalarning ijodiy faoliyatda ishtiroki ham faollikni kuchaytiruvchi muhim omildir. Bu tadqiqot, ilmiy yoki uslubiy ishlar, ishlab chiqish loyihalari va boshqa ijodiy faoliyat bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, intensiv pedagogika metodlaridan foydalanish, xususan, innovatsion va tashkiliy-faol o'yin mashg'ulotlarini joriy qilish, talabani qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, ma'lumotlarni bir tomonlama tushunchalardan ko'p tomonlama bilimga o'tkazish imkonini beradi va modellashtirish qobiliyatini shakllantiradi. Bu jarayonda vaziyatli o'rganish shakllari, shu jumladan, kompyuterlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Shuningdek, talabani motivatsiyasini oshiruvchi omillardan biri – turli fanlar bo'yicha olimpiadalar, ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlarga qaratilgan tanlovlarda ishtirok etishdir. Bilimlarni nazorat qilishda rag'batlantiruvchi vositalardan foydalanish ham talabani o'zini takomillashtirishga undovchi kuchli motivatsiya manbai hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqil ishi shaxsiylashtirish va doimiy yangilab borish, ya'ni darsda va undan tashqarida bajariladigan vazifalarni individuallashtirish talabani faolligini yanada oshiradi. Shu bilan birga, mustaqil ishning eng kuchli rag'batlantiruvchi omili sifatida o'qituvchi shaxsini alohida ta'kidlash mumkin. O'qituvchi talaba uchun kasb egasi va ijodkor sifatida namuna bo'lib, uning ijodiy imkoniyatlarini ochishga, ichki o'sish istiqbollari aniqlashga yordam beradi va bu jarayon talabani mustaqil izlanishga rag'batlantiradi.

Ta'lim muassasasida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishi shundan iboratki, u faqat alohida ish turlarini optimallashtirishga qaratilmasligi, balki barcha darslarda – ham auditoriyada, ham undan tashqarida – talabalarning yuqori faolligi, mustaqilligi va mas'uliyatini ta'minlaydigan sharoitlarni yaratishga qaratilishi lozim. Bunday yondashuv talabani bilish faoliyatini doimiy rag'batlantirish, uning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda mustaqil ish jarayonini ta'limning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish imkonini beradi.

Mustaqil ishlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabani shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda strategik vosita sifatida xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini samarali amalga oshirish uchun tizimli ishlarni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ularning ijodiy va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa oladigan, istiqbolli vazifalarni belgilash va ularni hal etish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlar avlodini shakllantirishga asos bo'ladi.

Shunday qilib, mustaqil ta'lim nafaqat bilish faoliyatini faollashtirish vositasi, balki oliy ta'limning strategik maqsadlariga erishishda, talabani shaxsiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kompetensiyaga yo'naltirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, 2020.
2. G'afforov Y. Tarix o'qitish metodikasi: darslik. – Toshkent: "Ishonchli hamkor", 2021-yil.
3. Андреев А.А. Педагогика высшей школы. – М.: Московский международный институт эконометрики, информатики, финансов и права, 2002.
4. Usmonov V.V. Talabalarning mustaqil ishi: kasb-hunar ta'limi jarayonida tashkil etish va boshqarish: monografiya. – Ulyanovsk: UIGGU, 2006.
5. Вайсеров З.В. Организация самостоятельной работы студентов – путь к повышению качества подготовки специалистов среднего звена. – 2008.
6. Батыршина А.Р. Технология организации самостоятельной работы студентов // Высшее образование сегодня. – 2008.
7. Bogoyavlenskaya A.E. Talabalarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: monografiya / A.E. Bogoyavlenskaya. – Tver, 2004.
8. Olimov Q.T. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – T., 2017. "Экономика и социум", № 5(96)-1, 2022. – 178-b.
9. Ziyomuhamedov B., Abdullayeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: Abu Ali Ibn Sino, 2018.
10. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi // Kasb-hunar ta'limi. – 2018. – 16–25-betlar.
11. Komarova T.S. O'qitish metodikasi. – Moskva: Ma'rifat, 2019. – 160 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.